O‘ZBEK-TURK INKLYUZIV MULOQOTIDA NUTQIY TA’SIR VA PRAGMATIK MAQSAD IFODASINING KONNOTATIV VA PERLOKUTIV XUSUSIYATLARI

Sherzod Atamuradov
Abdullayev Abdulla Abdurasulovich
ORCID: 0009-0001-7388-0770
abdulayevabdulla339@gmail.com
O‘zbekiston milliy universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va turk tillaridagi inklyuziv muloqot jarayonida nutqiy ta’sirning yuzaga kelishi, pragmatik maqsadning shakllanishi hamda uning konnotativ va perlokutiv jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot Ostin, Serl va Graysning nutq aktlari haqidagi qarashlari, Lichning ma’no tasnifi, Braun va Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi hamda kommunikativ moslashuv konsepsiyasiga tayanadi. Bunda so‘zlovchining ko‘zlagan pragmatik maqsadi, ya’ni kutilayotgan perlokutiv natija bilan tinglovchida amalda yuzaga keladigan perlokutiv samara bir-biridan farqlanishi asoslanadi. Maqolada “registr mosligi” ishchi tushunchasi ilgari surilib, nutqning muvaffaqiyati so‘zlovchi tanlagan konnotativ registr bilan tinglovchi kutgan registr o‘rtasidagi moslikka bog‘liq ekani ko‘rsatiladi. Iltimos, rad etish, maqtov va murojaat shakllari misolida har ikki tilda ham bilvosita va konnotativ jihatdan yumshatilgan strategiyalar faol qo‘llanishi kuzatiladi. Shu bilan birga, yumshatish vositalarining nisbiy ustuvorligida farqlar bor: o‘zbek tilida murojaat, unvon va diniy-etiket formulalari, turk tilida esa grammatik-modal konstruksiyalar va tayyor nutq formulalari ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Tadqiqot yakunida tarjima, til o‘qitish, diplomatik muloqot va madaniyatlararo kommunikatsiya uchun amaliy xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy ta’sir, pragmatik maqsad, perlokutiv akt, konnotativ ma’no, registr mosligi, inklyuziv muloqot, xushmuomalalik, o‘zbek tili, turk tili

CONNOTATIVE AND PERLOCUTIONARY CHARACTERISTICS OF LINGUISTIC INFLUENCE AND THE EXPRESSION OF PRAGMATIC INTENT IN UZBEK-TURKISH INCLUSIVE DIALOGUE

Sherzod Atamuradov
Abdulla Abdurasulovich Abdullayev
ORCID: 0009-0001-7388-0770
abdulayevabdulla339@gmail.com
National University of Uzbekistan

(cc) BY

Abstract: This article examines speech influence and the connotative and perlocutionary dimensions of pragmatic goal expression in inclusive Uzbek-Turkish communication from a comparative perspective. The analysis draws on speech act theory developed by Austin, Searle and Grice, Leech's classification of meaning, Brown and Levinson's politeness theory, and communication accommodation theory. Particular attention is paid to the distinction between the speaker's intended pragmatic goal, understood as the expected perlocutionary outcome, and the actual effect produced on the hearer. The article introduces the working notion of "register fit" and argues that communicative success is closely related to the degree of correspondence between the connotative register selected by the speaker and the register expected by the hearer. Requests, refusals, compliments and address forms demonstrate that both languages frequently rely on indirect and connotatively mitigated strategies. At the same time, the preferred mitigating devices differ in relative prominence: Uzbek tends to make extensive use of address forms, titles and religious-etiquette formulas, whereas Turkish more often relies on grammatical-modal constructions and routine speech formulas. The findings have implications for translation, language teaching, diplomacy and intercultural communication.

Keywords: speech influence, pragmatic goal, perlocutionary act, connotative meaning, register fit, inclusive communication, politeness, Uzbek, Turkish

Kirish

Muloqotda so‘zlovchi faqat axborot yetkazmaydi. U aytgan gapi orqali suhbatdoshining munosabatiga ham ta’sir ko‘rsatishga harakat qiladi: uni ishontirish, rozi qilish, hurmatini saqlash, hamkorlikka undash yoki noqulay vaziyatni yumshatish shular jumlasidandir. Shu jihatdan nutqning mazmuni bilan uning tinglovchida uyg‘otadigan ta’siri doimo bir xil bo‘lavermaydi. Nutq aktlari nazariyasida bu jarayon lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar o‘rtasidagi munosabat orqali izohlanadi (Austin, 1962; Searle, 1969).

Nutq aktlari nazariyasida illokutiv kuchga nisbatan ko‘proq e’tibor qaratilgan bo‘lsa, perlokutiv samara ko‘p jihatdan tinglovchining shaxsiy tajribasi, ijtimoiy mavqeyi va madaniy qarashlari bilan belgilanadi. Shuning uchun perlokutiv natijani so‘zlovchi to‘liq nazorat qila olmaydi. Ayniqsa, madaniyatlararo muloqotda bir xil illokutiv niyat turli talqinlarga sabab bo‘lishi mumkin. O‘zbek va turk tillari qarindoshligi hamda tarixiy-madaniy yaqinligiga qaramay, murojaat shakllari, nutq etiketi va ayrim diniy-etiket formulalarining qo‘llanishida sezilarli tafovutlar mavjud. Tillar o‘rtasidagi tashqi o‘xshashlik esa ba’zan ana shu farqlarni yashirib, “yashirin pragmatik xato”ga olib kelishi mumkin.

Inklyuziv muloqotda suhbatdoshning ijtimoiy, madaniy va emotsional xususiyatlarini hisobga olish muhim. Bunday vaziyatda so‘zning lug‘aviy ma’nosi

(cc) BY

bilan cheklanib qolish yetarli emas; uning konnotativ, ijtimoiy va affektiv yukini ham hisobga olish talab etiladi (Leech, 1981). Shu sababli mazkur tadqiqotda e'tibor nutqning kutilgan pragmatik natijaga qanday vositalar yordamida olib kelishi masalasiga qaratiladi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va turk tillaridagi inklyuziv muloqotda pragmatik maqsad, konnotativ ma'no va perlokutiv samara o'rtasidagi bog'liqlikni nazariy jihatdan asoslash va qiyosiy tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, kontrastiv-pragmatik tahlil va nutq aktlari nazariyasiga asoslangan funksional tahlil usullaridan foydalanildi. O'zbek va turk tillaridagi iltimos, rad etish va maqtov aktlariga doir ilmiy manbalarda qayd etilgan kuzatishlar qiyoslandi, ularning konnotativ va perlokutiv xususiyatlari umumlashtirildi.

Asosiy qism

Tadqiqotning nazariy poydevorini Ostinning "How to Do Things with Words" asarida ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi tashkil etadi. Ostin (1962) nutqiy harakatni lokutiv, illokutiv va perlokutiv jihatlarga ajratadi. Serl (1969) esa illokutiv aktlarni, jumladan, buyruq, iltimos, va'da va rad etish kabi turlarga ajratib, ularning kommunikativ kuchini batafsil izohlaydi. Serl va Vanderveken (1985) bu masalani illokutiv mantiq doirasida yanada rivojlantirgan bo'lsa, Yul (1996) illokutiv aktni, avvalo, so'zlovchining kommunikativ niyati bilan bog'laydi.

Perlokutiv samaraning asosiy xususiyati shundaki, u nutqning tinglovchida yuzaga keltirgan haqiqiy natijasini anglatadi. Ishontirish, xursand qilish, xijolatga solish yoki bosim uyg'otish kabi natijalar nutqning o'zida to'liq kafolatlanmaydi; ular tinglovchining reaksiyasi bilan belgilanadi. Shu bois maqolada *pragmatik maqsad* so'zlovchi erishishni ko'zlagan natija, *perlokutiv samara* esa tinglovchida real yuzaga kelgan ta'sir sifatida talqin qilinadi. Masalan, so'zlovchi iltimosining mamnuniyat bilan bajarilishini kutishi mumkin, biroq tinglovchi xuddi shu gapni bosim sifatida qabul qilsa, kutilgan va real natija o'rtasida tafovut paydo bo'ladi.

Bilvosita nutq aktlari (Searle, 1975) va suhbat implikaturalari (Grice, 1975) bu farqni tushuntirishda muhim. Masalan, "Ruchkani berib tura olasizmi?" grammatik jihatdan savol bo'lsa-da, vaziyatda u iltimos vazifasini bajaradi. Bilvosita shakl, odatda, suhbatdoshga tanlov imkonini qoldirib, bosimni kamaytiradi. Demak, nutqning grammatik shakli bilan uning pragmatik vazifasini bir xillashtirib yubormaslik lozim.

Konnotativ ma'no masalasida Lichning (1981) ma'no tasnifi muhim nazariy tayanch bo'lib xizmat qiladi. U konseptual, konnotativ, ijtimoiy, affektiv, akslangan, kollokativ va tematik ma'nolarni farqlaydi. Konseptual ma'no so'zning asosiy lug'aviy mazmunini bildirsa, konnotativ ma'no shu birlik bilan bog'liq qo'shimcha madaniy va emotsional assotsiatsiyalarni qamrab oladi. Ijtimoiy ma'no birlikning qaysi vaziyat va registrga xosligini, affektiv ma'no esa so'zlovchining suhbatdoshga yoki mavzuga

(cc) BY

munosabatini ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “aka”, “opa”, “ustoz” yoki turk tilidagi “abi”, “abla”, “hocam” kabi murojaatlar faqat suhbatdoshni atash vositasi emas. Ular bir vaqtning o‘zida ijtimoiy masofa va rolni bildiradi, hurmat yoki yaqinlikni ifodalaydi hamda muayyan madaniy tasavvurlarni faollashtiradi.

Goffman (1967) muloqot jarayonini shaxsning jamoatchilikdagi “yuzi”, ya’ni o‘zini qanday namoyon qilishi va boshqalar tomonidan qanday baholanishi bilan bog‘laydi. Braun va Levinson (1987) bu qarashni rivojlantirib, ijobiy yuz - qabul qilinish va ma’qullanish istagi, salbiy yuz - erkinlik va tazyiqdan xoli bo‘lish istagini ajratadi. Iltimos, rad etish va maqtov kabi aktlar ana shu “yuz”ga turli darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Lich (1983) xushmuomalalikni nazokat, saxovat, ma’qullash, kamtarlik, kelishuv va hamdardlik kabi maksimalar orqali izohlaydi. Masalan, iltimosni “ovora qilib qo‘ymasam” kabi yumshatuvchi birlik bilan berish yoki maqtovga “arzimaydi” deya javob qaytarish ushbu me’yorlar bilan izohlanadi. Turk tiliga oid tadqiqotlarda Bayraktaroğlu (1991), Ruhi va Işık-Güler (2007) hurmat va samimiyatning o‘zaro munosabatini alohida ko‘rsatadi. Bu nuqtayi nazar o‘zbek muloqot madaniyatiga ham ma’lum darajada mos keladi. Har ikki madaniyatda shaxs ko‘pincha munosabatlar tizimi ichida anglanadi va shu sababli notanish yoki yoshi katta kishiga qarindoshlik bildiruvchi murojaat birliklaridan foydalanish tabiiy hol sifatida uchraydi.

Ishimizda inklyuziv muloqot uch asosiy belgi orqali tushuntiriladi: birinchidan, suhbatdoshga yo‘naltirilganlik, ya’ni til shaklini u kutgan registrga moslashtirish; ikkinchidan, suhbatdoshning obro‘si va hurmatini saqlash; uchinchidan, qo‘llangan nutqiy birliklarning ikki tomonlama talqin qilinish imkonini ta’minlash. Birinchi jihat Giles va hammualliflarning (1991) kommunikativ moslashuv nazariyasidagi konvergensiya va divergensiya tushunchalari bilan bog‘lanadi. Madaniyatlararo pragmatika nuqtayi nazaridan Kecskes (2022) muloqot muvaffaqiyatida pragmatik moslashish va madaniyatlararo sezgirlikning ahamiyatini ko‘rsatadi. Tarjimada ham faqat so‘zma-so‘z muvofiqlik yetarli emas: asl matndagi kommunikativ ta’sir imkon qadar saqlanishi kerak (House, 2018). Tomas (1983) ajratgan pragmalingvistik va sotsiopragmatik xatolar o‘zbek-turk muloqotini tahlil qilishda ayniqsa qulay. Chunki ikki tildagi ayrim birliklar shaklan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning vaziyatga bog‘liq pragmatik qiymati bir xil bo‘lmasligi mumkin.

Demak, nutqiy ta’sirni faqat illokutiv niyat bilan izohlash yetarli emas. Bir xil maqsad, masalan, biror kishidan yordam so‘rash, turli shakllarda aytilganda turlicha qabul qilinadi. Bunda gapning grammatik tuzilishidan tashqari murojaat shakli, ohang, ijtimoiy masofa va yumshatuvchi birliklar ham muhim rol o‘ynaydi. Tinglovchi avvalo gapning kommunikativ kuchini anglaydi, so‘ngra uning qanday registrda aytilganini baholaydi. Shu baholash natijasida hurmat, ishonch, yaqinlik yoki aksincha, bosim va norozilik hissi paydo bo‘lishi mumkin. Shu asosda maqolada ilgari surilayotgan

(cc) BY

“registr mosligi” gipotezasiga ko‘ra, pragmatik maqsadga erishish ehtimoli so‘zlovchi tanlagan registr bilan tinglovchi kutgan registr o‘rtasidagi moslik oshgani sari ortadi. Moslikning buzilishi, odatda, ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: ortiqcha rasmiylik yaqin munosabatda keraksiz masofa yaratishi, ortiqcha samimiylik esa rasmiy yoki katta yoshdagi suhbatdosh tomonidan hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Demak, inklyuziv muloqotda muhim masala faqat “nima deyish” emas, balki “kimga, qanday va qaysi registrda aytish”dir.

O‘zbek tilida iltimos bildirishda ijtimoiy hurmatni ko‘rsatadigan murojaatlar, unvonlar va yumshatuvchi birliklar muhim o‘rin tutadi (Yusupova, 2025). Turk tilida ham bilvosita strategiyalar keng qo‘llanadi. Masalan, yaqin va teng munosabatda o‘zbek tilidagi “Ruchka berib tur-chi” jumlasi turk tilida “Bi’ kalem versene” shaklida qo‘llaniladi. Notanish yoki neytral vaziyatda “Kechirasiz, ruchkangizni berib tura olasizmi?” - “Pardon, kaleminizi kullanabilir miyim?” shakllari qo‘llanadi. Masofa va hurmat kuchayganda esa “Kechirasiz, ustoz, ovora qilib qo‘ymasam, ruchkangizni berib tura olasizmi?” (“Pardon hocam, zahmet vermezsem, kaleminizi kullanabilir miyim?”) singari uzunroq va yumshatilgan konstruksiyalar yuzaga keladi. Bu misollar masofa oshgan sari iltimos tarkibidagi yumshatuvchi vositalar ko‘payishini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida murojaat, unvon, “iltimos”, “marhamat” kabi etiket birliklari va shart mayli faol bo‘lsa, turk tilida “-abilir misiniz?”, “-sanız”, “rica ederim”, “lütfen”, “zahmet olmazsa” kabi vositalar ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Perlokutiv jihatdan bilvosita iltimos tinglovchiga rad etish yoki rozilik uchun ma’lum erkinlik qoldiradi. Shu bilan birga, murojaat va unvonlar uning ijtimoiy maqomini tan oladi. Natijada iltimosning ijobiy qabul qilinish ehtimoli ortadi va munosabatlar keskinlashishining oldi olinadi.

Rad etish ko‘pincha suhbatdosh kutgan harakatning bajarilmasligini bildirgani uchun perlokutiv jihatdan murakkab akt hisoblanadi. O‘zbek va turk tillarida “Kechirasiz, afsuski…” / “Maalesef…”, “Bugun ishim ko‘p ekan” / “Bugün biraz yoğunum”, “Keyinroq ko‘ramiz” / “Bir bakalım” kabi shakllar to‘g‘ridan-to‘g‘ri “yo‘q” deyishdan qochishga xizmat qiladi. “Xudo xohlasa, keyingi safar” va “İnşallah bir dahaki sefere” kabi formulalar esa rad etishni kelajakka yo‘naltirib, vaziyatdagi keskinlikni kamaytiradi. Muqobil taklif - “Lekin dushanba kuni yordam bera olaman” / “Ama pazartesi yardımcı olabilirim” - esa rad etish bilan birga hamkorlik niyatini saqlab qoladi. Bunday formulalarning asosiy pragmatik xavfi ularning turlicha talqin qilinishi bilan bog‘liq. “Keyinroq ko‘ramiz” yoki “Bir bakalım” bir madaniy muhitda rad etish sifatida tushunilsa, boshqa kommunikativ tajribaga ega suhbatdosh uni va’da yoki noaniq rozilik deb qabul qilishi mumkin. Diniy formulalarda ham vaziyat va ohang hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli rad etishda yumshatish bilan birga, imkon qadar muqobil variantni aniq ko‘rsatish muloqotdagi noaniqlikni kamaytiradi.

(cc) BY

Maqtov, odatda, suhbatdoshni ijobiy baholash va munosabatni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbek tilida ovqat yoki mehnatga nisbatan “qo‘lingiz dard ko‘rmasin”, “baraka toping” kabi, turk tilida esa “eline sağlık”, “ağzına sağlık”, “Allah razı olsun” kabi formulalar ishlatiladi. Ularning lug‘aviy mazmuni turlicha bo‘lsa-da, muloqotda minnatdorlik, hurmat va ijobiy munosabatni ifodalash vazifasini bajaradi. Tashqi ko‘rinish yoki bolani maqtashda “mashaallah” / “maşallah” shakllari ham ikki tilda uchraydi. Bunday birliklarda maqtov bilan bir qatorda ko‘z tegishidan saqlanish haqidagi madaniy tasavvur ham mavjud. Shunga mos ravishda “ko‘z tegmasin” va “nazar değmesin” kabi javoblar ishlatiladi. Maqtovga javob berishda kamtarlik me’yori muhim. O‘zbek tilida “yo‘g‘-e”, “arzimaydi”, “osh bo‘lsin” kabi, turk tilida esa “estağfurullah”, “rica ederim”, “afiyet olsun” kabi javoblar uchraydi. Ruhi (2006) turk tilidagi tabiiy maqtov-javob almashinuvlarini xushmuomalalik va munosabatlarni boshqarish bilan bog‘laydi. Biroq tayyor formulalardan vaziyatga mos kelmaydigan darajada ko‘p foydalanish samimiylikni susaytirishi mumkin. Demak, formuladan foydalanishning o‘zi emas, uning vaziyatga mosligi muhim.

O‘zbek va turk tillaridagi murojaat shakllari nutqiy ta’sirning eng sezilarli vositalaridan biridir. “Aka”, “opa”, “amaki”, “xola”, “ustoz” hamda “abi”, “abla”, “amca”, “teyze”, “hocam” kabi birliklar ko‘pincha lug‘aviy ma’nosidan kengroq kommunikativ vazifani bajaradi. Ular yaqinlik, hurmat, ijtimoiy masofa va suhbatdoshning mavqeyini bir vaqtning o‘zida ifodalashi mumkin. O‘zbek tilidagi qarindoshlik atamalarining yoshi katta yoki notanish shaxslarga nisbatan qo‘llanishi iliqlik va hurmatni kuchaytiradi. Turk tilida “hocam” kabi shakllarda egalik qo‘shimchasi (-m) o‘zining bevosita egalik ma’nosidan tashqari affektiv yaqinlik belgisini ham ifodalashi mumkin. “Hurmatli”, “janob”, “xonim”, “Sayın”, “…Bey”, “…Hanım” kabi birliklar esa rasmiy va neytral-hurmatli registrga xos;

“-jon” va “-cığım” kabi shakllar esa erkalash yoki yaqinlikni kuchaytiradi. Shunday qilib, konnotativ ma’no inklyuziv muloqotda oddiy uslubiy bezak emas. U so‘zlovchining pragmatik maqsadiga erishishiga xizmat qiladigan amaliy vositadir. Suhbatdoshning ijtimoiy va madaniy kutishlarini to‘g‘ri anglash, ayniqsa, o‘zbek-turk muloqotida pragmatik kompetensiyaning muhim qismi hisoblanadi.

Tahlil natijalarini umumlashtirganda, o‘zbek va turk tillarida iltimos, rad etish va maqtov aktlari uchun bilvosita hamda yumshatilgan strategiyalar muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilida murojaat, unvon, etiket birliklari va ayrim diniy formulalar ko‘proq ko‘zga tashlansa, turk tilida modal-so‘roq konstruksiyalari va tayyor nutq formulalari nisbatan faolroq ko‘rinadi.

Tomas (1983) tasnifi o‘zbek-turk muloqotidagi pragmatik xatolarni tushuntirish uchun qulay imkon beradi. Masalan, turkcha “rica ederim” turli vaziyatlarda iltimos bildirish yoki minnatdorchilikka javob berish vazifasida kelishi mumkin. O‘zbek tilidagi “iltimos” esa asosan iltimos aktini bildiradi, minnatdorchilikka javobda

(cc) BY

“arzimaydi” yoki “marhamat” ishlatiladi. Shu sababli “rica ederim”ni faqat “iltimos qilaman” ma’nosida tushunish noto‘g‘ri talqinga olib kelishi mumkin. “Marhamat” va “buyurun” kabi birliklar ham ayrim vaziyatlarda funksional jihatdan yaqin bo‘lsa-da, ularning qo‘llanish doirasi va konnotativ registri aynan bir xil emas. Xuddi shuningdek, turkcha “abi”ni rasmiy vaziyatda qo‘llash til jihatdan tushunarli bo‘lsa-da, sotsiopragmatik jihatdan noo‘rin bo‘lishi mumkin. Bunday “yolg‘on o‘xshashliklar” kutilgan perlokutiv samarani susaytiradi.

Tadqiqot natijalari, avvalo, tarjimada qo‘llanishi mumkin. O‘zbek va turk tillari o‘rtasidagi tarjimada faqat illokutiv maqsadni emas, balki konnotativ registrni ham yetkazish kerak. Til ta’limida ham grammatik to‘g‘rilik bilan pragmatik moslikni bir-biridan ajratmaslik kerak. O‘rganuvchilarga murojaat, iltimos va rad etish formulalarini yosh, ijtimoiy masofa va mavqega qarab bosqichma-bosqich o‘rgatish foydali. Ayniqsa, bir tilning tayyor formulasini ikkinchi tilga bevosita ko‘chirish qanday natijaga olib kelishini misollar asosida ko‘rsatish pragmatik xatolarni kamaytiradi. Diplomatik va biznes muloqotida ham registr masalasi alohida ahamiyatga ega. Suhbatdosh madaniyatiga mos murojaat tanlash, kechiktiruvchi yoki diniy formulalarning ma’nosini vaziyat asosida tushunish va rad javobida muqobil taklif bildirish hamkorlik muhitini saqlashga yordam beradi. Xizmat ko‘rsatish, ta’lim va ijtimoiy sohalarda esa o‘zbek va turk tilli suhbatdoshlar bilan ishlaydigan xodimlar uchun murojaat va yumshatish formulalariga doir qisqa amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqish mumkin.

Xulosa

O‘zbek-turk inklyuziv muloqotida nutqiy ta’sirni tushuntirish uchun pragmatik maqsad, illokutiv niyat, konnotativ ma’no va perlokutiv samara o‘rtasidagi munosabatni birgalikda ko‘rib chiqish zarur. Tadqiqotda so‘zlovchi ko‘zlagan natija bilan tinglovchida amalda yuzaga kelgan ta’sir farqlanib, konnotativ registr ushbu ikki jihat o‘rtasidagi muhim vositachi omil sifatida qaraldi. Shu asosda “registr mosligi” ishchi gipotezasi ilgari surildi. Tahlil qilingan iltimos, rad etish, maqtov va murojaat shakllari har ikki tilda ham bilvosita va yumshatilgan strategiyalar keng qo‘llanishini ko‘rsatadi. Biroq yumshatish vositalarining nisbiy ustuvorligida farq bor: o‘zbek tilida murojaat, unvon va etiket formulalari, turk tilida esa grammatik-modal konstruksiyalar hamda tayyor nutq formulalari ko‘proq namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, inklyuziv muloqotning muvaffaqiyati faqat to‘g‘ri nutq aktini tanlash bilan cheklanmaydi. So‘zlovchi o‘z niyatini suhbatdosh kutayotgan ijtimoiy va madaniy registrga mos shaklda ifodalashi ham kerak. Mazkur xulosa o‘zbek-turk muloqot madaniyatini yanada chuqurroq o‘rganish, shuningdek, tarjima, til ta’limi, diplomatik va madaniyatlararo muloqot amaliyotini takomillashtirish uchun nazariy asos bo‘la oladi.

(cc) BY

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin, J. L. (1962). How to do things with words. Clarendon Press.

2. Bayraktaroğlu, A. (1991). Politeness and interactional imbalance. International Journal of the Sociology of Language, 92, 5-34.

3. Beebe, L. M., Takahashi, T., & Uliss-Weltz, R. (1990). Pragmatic transfer in ESL refusals. In R. C. Scarcella, E. S. Andersen, & S. D. Krashen (Eds.), Developing communicative competence in a second language (pp. 55-73). Newbury House.

4. Blum-Kulka, S., House, J., & Kasper, G. (Eds.). (1989). Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies. Ablex.

5. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.

6. Brown, R., & Gilman, A. (1960). The pronouns of power and solidarity. In T. A. Sebeok (Ed.), Style in language (pp. 253-276). MIT Press.

7. Giles, H., Coupland, N., & Coupland, J. (1991). Accommodation theory: Communication, context, and consequence. In H. Giles, J. Coupland, & N. Coupland (Eds.), Contexts of accommodation (pp. 1-68). Cambridge University Press.

8. Goffman, E. (1967). Interaction ritual: Essays on face-to-face behavior. Anchor Books.

9. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), Syntax and semantics: Vol. 3. Speech acts (pp. 41-58). Academic Press.

10. House, J. (2018). Translation: The basics. Routledge.

11. Kağıtçıbaşı, Ç. (2007). Family, self, and human development across cultures: Theory and applications (2nd ed.). Lawrence Erlbaum.

12. Kecskes, I. (Ed.). (2022). The Cambridge handbook of intercultural pragmatics. Cambridge University Press.

13. Leech, G. (1981). Semantics: The study of meaning (2nd ed.). Penguin Books.

14. Leech, G. N. (1983). Principles of pragmatics. Longman.

15. Mahmudov, N. (2005). Pragmatik tahlil asoslari. Fan.

16. Özcan, E. N. (2022). Turkish instructors' beliefs and EFL learners' realization of speech act of requests: A descriptive case study. Focus on ELT Journal, 4(2), 87-100. https://doi.org/10.14744/felt.2022.4.2.6

17. Ruhi, Ş. (2006). Politeness in compliment responses: A perspective from naturally occurring exchanges in Turkish. Pragmatics, 16(1), 43-101.

18. Ruhi, Ş., & Işık-Güler, H. (2007). Conceptualizing face and relational work in (im)politeness: Revelations from politeness lexemes and idioms in Turkish. Journal of Pragmatics, 39(4), 681-711.

19. Searle, J. R. (1969). Speech acts: An essay in the philosophy of language. Cambridge University Press.

(cc) BY

20. Searle, J. R. (1975). Indirect speech acts. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), Syntax and semantics: Vol. 3. Speech acts (pp. 59-82). Academic Press.

21. Searle, J. R., & Vanderveken, D. (1985). Foundations of illocutionary logic. Cambridge University Press.

22. Spencer-Oatey, H. (2008). Culturally speaking: Culture, communication and politeness theory (2nd ed.). Continuum.

23. Thomas, J. (1983). Cross-cultural pragmatic failure. Applied Linguistics, 4(2), 91-112.

24. Wierzbicka, A. (2003). Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction (2nd ed.). Mouton de Gruyter.

25. Yule, G. (1996). Pragmatics. Oxford University Press.

26. Yusupova, Z. T. (2025). Nutq aktlari nazariyasi asosida muloqotning lingvopragmatik xususiyatlari o‘zbek va ingliz tillari misolida. Modern Science and Research, 4(10), 37-40. https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.science-research.137191

(cc) BY